

TURKIY XALQLAR MADANIYATIDA OILA HAQIDAGI PAREMALAR: LINGVOMADANIY TAHLIL

Mustofoqulova Sohiba Alibekovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti 2-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17377278>

Annotatsiya. Mazkur maqolada turkiy xalqlar madaniyatida oila tushunchasining o'zni, uning paremlar (maqollar) orqali ifodalanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Turkiy tillarga mansub xalqlar og'zaki ijodida oila, ota-ona, farzand, totuvlik, ayolning o'zni kabi mavzularda shakllangan paremlar lingvomadaniy birlik sifatida o'rganiladi. Tadqiqotda qardosh xalqlar — o'zbek, qozoq, qirg'iz, turkman, uyg'ur va turk tillaridagi o'xshash va farqli jihatlar qiyosiy yondashuv asosida tahlil etiladi.

Kalit so'zlar. parema, maqol, turkiy xalqlar, oila, qadriyat, lingvomadaniyat, qardoshlik.

Аннотация. В данной статье анализируется роль концепта семьи в культуре тюркских народов, особенности его выражения через пословицы (паремии). В устном творчестве тюркских народов пословицы, образованные на такие темы, как семья, родители, дети, согласие, роль женщины, изучаются как лингвокультурная единица. В исследовании анализируются сходства и различия в языках братских народов – узбекского, казахского, киргизского, туркменского, уйгурского и турецкого – на основе сопоставительного подхода.

Ключевые слова. Парема, пословица, тюркские народы, семья, ценность, лингвокультура, братство.

Annotation: This article analyzes the role of the concept of family in the culture of Turkic peoples, the features of its expression through proverbs (proverbs). In the oral literature of Turkic peoples, proverbs formed on topics such as family, parents, children, harmony, and the role of women are studied as a linguistic and cultural unit. The study analyzes the similarities and differences in the languages of fraternal peoples - Uzbek, Kazakh, Kyrgyz, Turkmen, Uyghur, and Turkish - based on a comparative approach.

Keywords. Parema, proverb, Turkic peoples, family, value, linguistic culture, brotherhood.

Paremiologiya so'zi grekcha paroimia (hikmat) va logos (fan) so'zlaridan olingan bo'lib, ma'lum bir tildagi maqol, matal, aforizm kabi hikmatli iboralar sistemasini o'rganadigan fandir. Olimlarning aniqlashlaricha, har bir kishi tilimizdagi 800 ga yaqin maqol, matal yoki aforizm haqida tushunchaga ega bo'ladi. Turkiy xalqlarning madaniy merosi juda boy bo'lib, unda oila institutining o'zni beqiyosdir. Oila qadimdan inson tarbiyasi, axloqi va milliy tafakkurning shakllanishida asosiy ijtimoiy muhit bo'lib xizmat qilgan. Shu bois xalq og'zaki ijodi — xususan, maqollar orqali oila qadriyati, totuvlik, mehr-oqibat va hurmat kabi tushunchalar avloddan-avlodga o'tib kelmoqda.

Paremlarning o'rganilishi xalq tafakkurining madaniy kodlarini anglashda muhimdir. Har bir maqol ma'lum bir xalqning dunyoqarashi, ijtimoiy qadriyati va tarixiy tajribasini aks ettiradi.

Oila — turkiy xalqlar madaniyatining markaziy qadriyati. O'zbek xalq maqollarida oila "hayot manbayi" sifatida talqin qilinadi:

"Totuv oila – baxt manbayi",

“Uy tinch – el tinch”,

“Oila – millatning yuragi.”

Qozoq xalqi og'zaki ijodida ham bu g'oya aniq ifodalanadi: “Birlik bar – tirlik bar” (Birlik bo'lsa, hayot bo'ladi). Qirg'izlarda esa “Үй-бүлө ыйман негиз” (Oila – imonning asosi) shaklida uchraydi. Bularning barchasi oila totuvligi jamiyat tinchligining kaliti ekanligini ko'rsatadi. Turkiy xalqlarda ota-onaga hurmat qilish eng muhim axloqiy qadriyatdir. O'zbeklarda “Ota – tog', ona – bog'”, “Ota duosi – ota kaliti” kabi maqollar mavjud. Qozoqlarda esa: “Анаңды Меккеге арқалап апарсаң да, ақ сүтін өтей алмайсың.” (“Onangni Makkaga olib borsang ham, uning mehnatini uzolmayсан.”) Bu paremlar ota-onaga mehr va sadoqatni xalq madaniyatining ajralmas qismi sifatida namoyon etadi. Turkiy xalqlar qadriyatlarida ayol — oila tayanchi, tinchlik va baraka ramzidir. Qirg'izlarda “Эне – үйдүн куту”, turkmanlarda “Аял – öyüň diregi”, o'zbeklarda “Ayol bor joyda fayz bor” degan maqollar mavjud.

Bu birliklarda ayolning ijtimoiy roli va oiladagi muhim mavqei yuksak baholangan. Oila haqidagi maqollar til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ifodalaydi. Ular semantik jihatdan: mehr, sadoqat, hurmat, tinchlik tushunchalarini mujassam etsa, madaniy jihatdan: xalqning o'ziga xos hayot falsafasi va qadriyat tizimini ifodalaydi. Lingvistik jihatdan esa metafora, parallelizm va antiteza kabi badiiy vositalar orqali ma'no kuchaytiriladi. O'zbek xalqining paremiologik boyligini to'plash va nashr qildirishda ham anchagina yutuqlarga erishildi. «O'zbek xalq maqollari» to'plamida 1800 ta maqol-matal 31 temaga ajratib klassifikatsiya qilingan. Ularni R. Jumaniyozov 22 temaga, A. Xolmuxamedov esa 56 temaga ajratadi.¹ Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, maqol-matal tipidagi paremlarni tematik jihatdan klassifikatsiya qilishda ma'lum bir qonuniyat yo'q, shuning uchun ularni ko'plab temalarga ajratib klassifikatsiya qilish mumkin. Paremlar badiiy tasvirlash vositalariga ko'ra ham klassifikatsiya qilinsa bo'ladi, ya'ni qofiyasiga, evfonik vositalariga ko'ra, o'xshatishni (metafora), taqqoslashni (antiteza), parallelizm, anafora, kinoya, piching, kesatqni ifodalashiga ko'ra ham turlarga ajratish mumkin.

Xulosa

Turkiy xalqlar paremlarida oila mavzusi xalq tafakkurining markaziy yo'nalishlaridan biridir. Bu kabi maqollar milliy tarbiya, axloqiy me'yor va ijtimoiy munosabatlarni shakllantiruvchi qudratli vosita sifatida xizmat qiladi. Turkiy xalqlar o'rtasidagi madaniy yaqinlikni badiiy adabiyotlarda ham ko'rishimiz mumkin, bunda asosan turkiy xalqlarning bugungacha bo'lgan qadriyatlarini aks ettiradi va yoshlarga ham bu borada kerakli tarbiya berib boriladi, bunda yozuvchilardan yuksak mahorat va tajriba talab etiladi. Bunga misol tariqasida Abdulla Qodiriy, Chingiz Aytmatov, Asqad Muxtor, Said Ahmad kabi yozuvchilarning asarlarini keltirib o'tishimiz mumkin va bu umumiy tarixiy ildizlariga borib taqaladi. Shunday qilib, oila haqidagi paremlar turkiy xalqlarning ma'naviy birligini ifodalovchi lingvomadaniy hodisadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov, A. (2018). O'zbek xalq maqollari va ularning semantik tahlili. Toshkent: Fan nashriyoti.

¹ Maqol-matal tipidagi paremlarning o'rganilish tarixi haqida. H.Berdiyev, R.Rasulov, B. Yo'ldoshev



2. Öztürk, M. (2021). Türk Atasözlerinde Aile ve Toplum. Ankara: Türk Dil Kurumu.
3. Turdaliyeva, G. (2019). Qirg'iz xalq og'zaki ijodi: qadriyatlar tizimi. Bishkek: Ilim nashriyoti.
4. Bekmuratov, B. (2020). Qozoq va o'zbek maqollarida oila qadri. Almaty universiteti nashri.
5. Gündoğan, S. (2017). Türk Dünyası Atasözlerinde Ahlak ve Aile. İstanbul Universiteti.
6. Nazarov, N. (2022). Turkiy xalqlarning umumiy madaniy qadriyatlari. Toshkent davlat universiteti.
7. Rahmatullayeva, D. (2023). Oila va tarbiya paremlarida milliy g'oya. Termiz davlat universiteti.
8. Abdullayev, Z. (2016). Maqollar – xalq tafakkuri oynasi. Namangan: Zarafshon.
9. Berdiyev, H va Rasulov, R (Toshkent o'qituvchi 1984) O'zbek tilining paremiologik lug'ati.